

DUNYOMIZGA NIMALAR XAVF SOLMOQDA?



Okean ifloslanishi mumkinligini bilasanmi?

Ha, chiqindilar tufayli dengiz jonivorlari azob chekadi.



Odamlar uni qutqara olishadimi?

Kel, o'qib bilib olamiz!



Bolalar okeanni qanday qutqarishdi?



Bir iliq va moviy okeanda Nurtoy ismli kichkina delfincha yashar edi. U marjonlar orasida kumushrang baliqchalar bilan quvlashmachoq o'ynashni yaxshi ko'rardi. Ammo bir kuni Nurtoy suv loyqalanganini, marjon qoyalar yonida esa paketlar va plastik idishlar suzib yurganini ko'rib qoldi.

- Bu nima? – hayron bo'ldi u.
- Bu odamlar tashlagan chiqindi, – dedi kekxa Toshbaqa g'amginlik bilan.
- U daryolarga, keyin esa okeanga tushadi.

Baliqlar paketlarga o'ralib qolar, dengiz qushlari plastikni yegulik deb o'ylar, marjonlar esa xiralashib, okean go'yo kasal bo'lib qolgandek edi.

Shunday kunlarning birida qirg'oqda odamlar paydo bo'lishdi. Bular olimlar, ko'ngillilar va ularning farzandlari bo'lib, kiyimlarida "Okeanga yordam beraylik!" degan yozuv bor edi. Ular maxsus to'rlar bilan suvdagi chiqindilarni yig'ishardi. G'avvoslar dengiz tubini ehtiyotkorlik bilan tozalashardi. Bolalar esa qirg'oqda plyajni tozalashda qatnashishardi.

Sanjar ismli bola plastik idishni ko'tarib dedi:

- Agar har birimiz qirg'oqda o'zimiz qoldirgan chiqindilarni yig'ishtirib olsak, okean tozaroq bo'ladi!

Vaqt o'tib, odamlar maxsus zavodlar qurishdi, u yerda plastik qayta ishlanib, yangi buyumlar yasaladigan bo'ldi. Maktablarda bolalarga nima uchun okeanga chiqindi tashlash mumkin emasligini tushuntira boshlashdi, do'konlarda esa qog'ozdan yasalgan va ko'p marta ishlatiladigan pakatlardan ko'proq foydalanila boshlandi.

Nihoyat Nurtoy yana shaffof suvni ko'ra boshladi. Baliqlar shodlanib sakrar, marjonlar esa yorqin ranglarda jilolanardi.

– Rahmat odamlarga! – dedi Nurtoy.

– Inson tabiatga g'amxo'rlik qilsa, u tabiatning do'stiga aylanadi, – deb javob berdi Toshbaqa.

O'shandan beri okean ahli hatto kichik bir ezgu ish ham katta olamni qutqarishi mumkinligini bilishar ekan.



1. Hikoya boshida okeanda nima sodir bo'ldi?
2. Dengiz hayvonlari nima uchun azob chekishdi?
3. Odamlar suv va qirg'oqni tozalash uchun nima qilishdi?
4. Bu hikoya nimaga o'rgatadi?
5. Tabiatga yordam berish uchun shaxsan siz nima qila olasiz?



Kichik guruhlarda dengiz jonzotlari nomidan odamlarga xat yozing. Xatlarni o'qing va qaysi dengiz jonzotlarining so'zlari sizga ko'proq yoqqanligini muhokama qiling.



Hayotimiz sayyoramizning sog'lig'iga bog'liq. Yerga zarar yetkazish orqali biz o'z sog'lig'imizga zarar yetkazamiz.





Rasmga qarang. U haqida savollar tuzib, sinfdoshlaringizdan so'rang. Javoblarni muhokama qiling. Qaysi savollar eng qiziqarli bo'ldi?



Nurtoy ismli delfinchaning hayoti haqidagi hikoya yuzasidan o'zingizning rasmingizni chizing.

